XIII. DEMOGRAFIYA

Doimiy aholi soni

Qashqadaryo viloyatining doimiy aholisi soni 2023- yil 1- iyul holatiga 3515,7 ming kishini tashkil etib, 2023- yil boshidan 33,4 ming kishiga ya'ni 1,0 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1507,0 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 42,9 %), qishloq aholisi soni 2008,7 ming kishini (57,1 %) tashkil etdi.

E'tibor bering:
2023- yil yanvar-iyun oylarida

-Aholi soni **33,4 ming kishiga** ko'paydi.

-Tirik tug'ilganlar soni **44,5 ming nafarni** tashkil etdi.

-Vafot etganlar soni **8,0 ming** nafarni tashkil etdi.

-Nikohlar soni **10,0 ming nafarni** tashkil etdi.

-Ajrimlar soni **1,8 ming nafarni** tashkil etdi

2023- yilning yanvar-iyun oylarida

Yil boshida doimiy aholi soni
3 482 318 kishi
(2023- yil 1- yanvar holatiga)

44,5 *ming bola*
Tug'ilganlar soni

8,0 *ming kishi*
O'lganlar soni

4,4 *ming kishi*
Ko'chib kelganlar soni

7,5 *ming kishi*
Ko'chib ketganlar soni

Doimiy aholi soni
3 515 690 kishi
(2023- yilning 1- iyul holatiga)

Qashqadaryo viloyati bo‘yicha doimiy aholi soni[1)]
(2023- yilning 1- iyul holatiga, ming kishi)

	Jami aholi	*shu jumladan:*	
		shahar aholisi	*qishloq aholisi*
Qashqadaryo viloyati	**3 515,7**	**1 507,0**	**2 008,7**
shaharlar:			
Qarshi sh.	292,7	292,7	-
Shahrisabz sh.	145,9	145,9	-
tumanlar:			
G‘uzor	219,5	51,7	167,8
Dehqonobod	157,7	30,0	127,7
Qamashi	289,6	68,9	220,7
Qarshi	268,3	97,4	170,9
Koson	307,9	162,0	145,9
Kitob	278,4	103,9	174,5
Mirishkor	127,8	48,2	79,6
Muborak	92,4	73,6	18,8
Nishon	164,3	99,1	65,2
Kasbi	210,3	81,3	129,0
Ko‘kdala	185,7	29,3	156,4
Chiroqchi	263,6	75,8	187,8
Shahrisabz	232,3	56,0	176,3
Yakkabog‘	279,3	91,2	188,1

[1)] *dastlabki ma'lumot*

Qashqadaryo viloyati bo‘yicha doimiy aholi soni
(1- iyul holatiga ming kishi)

	2022- y.	*2023- y.*	*O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati % da*
Qashqadaryo viloyati	**3 438,7**	**3 515,7**	**102,2**
shaharlar:			
Qarshi sh.	286,3	292,7	102,2
Shahrisabz sh.	143,7	145,9	101,5
tumanlar:			
G’uzor	214,4	219,5	102,4
Dehqonobod	154,5	157,7	102,1
Qamashi	283,2	289,6	102,3
Qarshi	261,9	268,3	102,4
Koson	300,5	307,9	102,5
Kitob	273,1	278,5	102,0
Mirishkor	125,2	127,8	102,1
Muborak	91,0	92,4	101,5
Nishon	160,7	164,3	102,2
Kasbi	205,6	210,3	102,3
Ko‘kdala	178,2	185,7	104,2
Chiroqchi	258,5	263,6	102,0
Shahrisabz	228,6	232,3	101,6
Yakkabog‘	273,3	279,2	102,2

Yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy harakati

	kishi			har 1000 kishiga nisbatan promille	
	2022- y.	2023- y.[1]	o‘sish, kamayish	2022- y.	2023- y.[2]
Tug‘ilganlar	42471	44474	2003	25,0	25,6
O‘lganlar	8503	8039	-464	5,0	4,6
Tabiiy o‘sish	33968	36435	2467	20,0	21,0
Nikohlar	10798	9967	-831	6,4	5,7
Ajralishlar	2006	1822	-184	1,2	1,1

Tug‘ilish darajasi. 2023- yilning yanvar-iyun oylarida tug‘ilganlar soni 44 474 kishini tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (42 471 kishi) nisbatan 2 003 kishiga yoki 4,7 foizga ko‘paydi. Tug‘ilish koeffitsienti mos ravishda 25,6 promilleni tashkil qildi va 2022- yilning shu davriga (25,0 promille) nisbatan 0,6 promillega ko‘paydi.

Aholining tabiiy harakati koeffitsientlari

(yanvar-iyun oylarida) (1000 aholi soniga nisbatan promille)



[1] dastlabki ma'lumot
[2] dastlabki ma'lumot

Tug‘ilish darajasining ko‘payishi viloyatning deyarli barcha hududlarida qayd etildi. Bu ko‘rsatkichning yuqori darajasi Qarshi shahrida 23,8 dan 26,8 promillega va Qarshi tumanida 15,9 dan 19,1 promillega ko‘payishi kuzatilgan.

Tug‘ilish. 2023- yilning yanvar-iyun oylarida 44,5 mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va keyinchalik tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan) mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsienti 25,6 promilleni tashkil etdi hamda 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,6 promillega ko‘payganligi (2022- yilning yanvar-iyun oylarida 25,0 promille bo‘lgan) kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsienti
(2023- yilning yanvar-iyun oylarida)



O‘lim darajasi. 2023- yilning yanvar-iyun oylarida o‘lganlar soni 8039 kishini tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (8503 kishi) nisbatan 464 kishiga yoki 94,5 foizga kamaydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsienti 4,6 promilleni tashkil qildi (2022 yilning yanvar- iyun oylarida 5,0 promille).

2023- yilning yanvar-iyun oylarida asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha vafot etganlarning taqsimlanishi

(jami vafot etganlarga nisbatan foiz hisobida)



O‘lim koeffitsientlari



O‘lim ko‘rsatkichlarining yuqori darajasi Ko‘kdalada (0,9 dan 4,0 promillega), Dehqonobodda (5,1 dan 7,5 promillega) ko‘payishi kuzatilgan.

Nikoh. 2023- yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 10,0 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 5,7 promilleni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti
(2023- yilning yanvar-iyun oylari holatiga 1000 aholiga nisbatan promille)



Nikohdan ajralishlar. 2023- yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,8 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 1,1 promilleni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti
2023- yilning yanvar-iyun oylari holatiga)



Nikohlar va ajralishlar. 2023- yilning yanvar-iyun oylari FHDYO organlarida 9967 ta nikohlar va 1822 ta ajralishlar ro‘yxatga olingan. Ming aholiga nisbatan 5,7 ta nikoh (2022- yilning tegishli davrida 6,4 ta) va 1,1 ta ajralishlar (2022- yilning tegishli davrida 1,2 ta) to‘g‘ri kelgan.

Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

(yanvar-iyun oylarida, birlik)

	Tuzilgan nikohlar		*Nikohdan ajralishlar*	
	2022- y.	*2023- y.*	*2022- y.*	*2023- y.*
Qashqadaryo viloyati	**10798**	**9967**	**2006**	**1822**
shaharlar:				
Qarshi sh.	1001	935	245	240
Shahrisabz sh.	372	381	145	144
tumanlar:				
G’uzor	672	662	72	73
Dehqonobod	417	392	30	73
Qamashi	997	849	154	128
Qarshi	838	752	211	133
Koson	961	918	105	103
Kitob	857	753	196	134
Mirishkor	343	349	45	42
Muborak	298	281	47	53
Nishon	547	471	94	94
Kasbi	564	620	91	100
Ko‘kdala	124	474	22	45
Chiroqchi	1180	689	150	120
Shahrisabz	775	692	170	126
Yakkabog‘	852	749	229	214

Migratsiya[1] (Ichki va tashqi). Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2023- yilning yanvar-iyun oylarida Viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 4431 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 7494 kishini tashkil qilgan.

Aholi migratsiyasi (kishi)

	2022- yilning yanvar-iyun oylarida	2023- yilning yanvar-iyun oylarida
Ko'chib kelganlar	5050	4431
Ko'chib ketganlar	8698	7494
Migratsiya saldosi	-3648	-3063

2023- yilning yanvar-iyun oylarida migratsiya qoldig'i minus 3063 kishiga (2022- yilning shu davrida minus 3648 kishi) teng bo'ldi. Eng katta minus qoldiqlar Qamashi (minus 497), Shahrisabz (minus 389) va Yakkabog' (minus 380) tumanlarida kuzatilgan.

Yanvar-iyun oylarida

Soni, *ming kishi*





[1] *shahar va tumanlar hamda hududlar aro ichki migratsiyani qo'shgan holda*
[2)] *dastlabki ma'lumot*

Viloyat markazidagi demografik holat

Qashqadaryo viloyati markazi Qarshi shahrining doimiy aholisi soni 2023- yil 1- iyul holatiga 292,7 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 3,8 ming kishiga yoki 1,3 % ga o‘sgan.

Qarshi shahri aholisi tabiiy harakati

(1000 aholiga nisbatan promille)

2022- yilning yanvar-iyun oylarida		2023- yilning yanvar-iyun oylarida
	Tug‘ilish	
29,6		31,4

2023- yilning yanvar-iyun oylarida 4,5 ming bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda tug‘ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 31,4 promilleni tashkil etdi (2022- yilning mos davrida 29,6 promille bo‘lgan).

FHDYO organlarida 2023- yilning yanvar-iyun oylarida 935 ta nikoh va 240 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan.

Shuningdek, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 6,5 promilleni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan kamaygan. (2022- yilning mos davrida 7,1 promille bo‘lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,7 promilleni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan teng. 2022- yilning mos davrida 1,7 promille bo‘lgan.

Qarshi shahrida tuzilgan nikoh va ajrim

(yanvar-iyun holatiga 1000 aholiga nisbatan promille)